

tachilik, botanika, matematika, fizika, jismoniy tarbiya va b.) terminologik lug'atlar yaratilgan bo'lsa, yurispruden-siya sohasida bu borada o'ziga xos rekord qo'yilgan,

desak xato qilmagan bo'lamiz. Diqqatga sazovor joyi hozirga qadar quyidagidek 6 ta terminologik va izohli lug'at hamda ikkita qomusning yaratilganligidadir [2]:

#### Terminologik va izohli lug'atlar

- 1) F.S.Bokirov. Yuridik terminlar lug'ati. – Toshkent, 1959.
- 2) F.Muhiddinov, Q.Mirzajonov. Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at-spravochnigi. – Toshkent, 1983.
- 3) Русско-узбекский учебный словарь правовой лексики. – Ташкент, 1991.
- 4) Yuridik atama va iboralar lug'ati. – Toshkent, 1993.
- 5) Г.Сатимов. Англо-русско-узбекский словарь юридических терминов. – Ташкент, 1999.
- 6) G'.Ahmedov, H.Bektemirov. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati. – Toshkent, 2002.

Qomuslar:

- 1) Yuridik ensiklopediya. – Toshkent, 2001.
  - 2) Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – Toshkent, 2003.
- Bunday lug'atlarda aks etgan terminlar bugungi kunda qonunchilik hujjatlarida faol ishlatib kelinmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tezaurus-uz/> (Murojaat sanasi 21.02.2023).
2. Gulyamova G. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqloq davri taraqqiyoti. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2005.
3. Бойко Л.М. Совершенствование законодательной техники в условиях социально-экономического развития советского общества. – Ташкент: Фан, 1988.
4. Bokirov F.S. Yuridik terminlar lug'ati. – Toshkent: Fan, 1959.
5. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977.
6. Воинова М.Г., Жигандарова Н.В., Мухамеджанов О.З. Язык Конституции Республики Узбекистан. – Ташкент: ТГЮИ, 2002.
7. Wüster Eugen. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. Ergon Verlag. – Würzburg, 2017.
8. Вопросы терминологии (Материалы Всесоюзного терминологического совещания). – Москва: АН, 1961.
9. Гафурова Л. Бытовая лексика современного узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1991.
10. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland in der Fassung vom 3. November 1995. – Bonn: Bundeszentralle für politische Ausbildung, 1997.
11. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1963.
12. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985.
13. Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988.
14. Doniyorov R. Terminlarni o'zlashtirish mezonlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1991, №6.
15. Yodrogov X.E. O'zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi: Filol. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent, 1996.
16. Jalolov J.D. Sud tibbiyotidan terminologik ma'lumotnoma. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 1995.
17. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 1999.

**Nargiza XODJAKULOVA,**


*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi*

## INGLIZ TILINI O'RGANISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Hayvonlar jon saqlab qolish yoki oziq-ovqat topish uchun eshitish qobiliyatidan foydalanadi. Inson esa nafaqat tovushlarni eshitish, balki ma'ruzalar, radio va televidion dasturlar va boshqa insonlar bilan bo'lgan suhbatlarni tinglay olish, uni idrok eta olish va eshitgan ma'lumotini (hattoki oddiy tovushni ham) tahlil qila olish qobiliyatiga ega mavjudot hisoblanadi. Yosh chaqaloq o'sib rivojlanishi davomida atrofdagi odamlar ovozini, tovushlarni eshitib dunyoni taniydi. U tug'ilganida bir-

daniga gapirmaydi, birinchi bo'lib uning eshitish, tinglab tushunish ko'nikmasi harakatga tushadi va rivojlanadi. Insoniyat tinglashni, idrok etishni o'rganadi va, shu bilan birgalikda, o'qib-o'rganish, dunyoni tanish uchun ham eshitadi va tinglab tushunish ko'nikmasini yillar mobaynida shakllantirib boradi. Hayvonlardan farqli o'laroq, inson eshitganda va tinglaganda turli tuyg'ularni his qiladi. U turli musiqa janrlari yoki xonandalar ijrosi (misol uchun kimdir Betxovenni, yana kimdir Emenimni

## 1-rasm. Tinglab tushunishning turlari



eshitadi), anekdotlar (askiyalar, hajviyalar), qiziqarli hikoyalar (real voqelik asosida yoki to'qima), yangiliklar va boshqa materiallar (hattoki tovush)ni eshitganida miyaning fiziologik jarayonlari sabab uning ongida xuddi kinodek tasavvurlar paydo bo'ladi va bu jarayonda tinglab tushunish ko'nikmasi orqali, yuqorida aytilganidek, odamzod dunyoni anglash va yangi narsalarni kashf etib rivojlanishda davom etadi [1: 9–10].

Shu o'rinda *eshitish analizatorlari* nima ekanligiga ham ta'rif berib o'tish joiz. Bu eshitish sistemasi – tovush tebranishlarini eshitish organlari orqali sezib, tahlil qiladigan mexanik retseptorlar va nerv tuzilmalari majmuyi. Eshitish analizatorlarining tuzilishi, ayniqsa, uning periferik qismi odamda va hayvonlarda farq qiladi. Eshitish analizatorlari hasharotlarda timpanal organ, suyakli baliqlarda suzgich pufagi hisoblanadi. Suzgich pufagining tebranishi veberov apparatiga, undan ichki quloqqa o'tadi. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarning ichki qulog'ida qo'shimcha retseptor hujayralar (bazilyar membranalari – papillalar) rivojlanadi. Yirik umurtqalilar, jumladan, ko'pchilik sut emizuvchilarda eshitish analizatorlari tashqi, o'rta va ichki quloq, shuningdek, eshitish nervi hamda ketma-ket tutashgan nerv markazlaridan iborat. Eshitish analizatorlari markaziy bo'limining rivojlanishi ekologik omillar va eshitish analizatorlarining hayvonlar xatti-harakatidagi ahamiyati bilan bog'liq. Eshitish nervi tolalari chig'anoqdan nerv markazlaridan biri – koxlyar yadrolariga boradi; chap va o'ng koxlyardan chiqadigan nerv tolalari eshitish analizatorlarining ikki yoni bo'ylab simmetrik joylashgan bo'lib, yuqori olivaga kelib tutashadi. Tovush tebranishlarini aniqlashda chig'anoq to'sig'i asosiy ahamiyatga ega. Bu to'siq tovushni mexanik spektral analiz qiladigan, chig'anoq to'sig'i bo'ylab qator joylashgan filtrlash-eshitish retsep-

1-rasmda berilganidek, tinglab tushunishning asosiy to'rtta turi mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

<b>Listening for gist</b> (umumiy mazmuni tushunish maqsadida tinglash)	Bu turdagi tinglab tushunishda ingliz tilidagi biror suhbat yoki tinglanilayotgan audio/videomaterialning asosiy mazmuni nima haqidaligini bilishga diqqat qaratiladi. Suhbat (yoki audiomaterial) qay darajada (qanday tempda) borayotganini ovoz tembrlaridan sezish mumkin.
<b>Listening for specific information</b> (muayyan ma'lumotga, axborotga diqqatni qaratib tinglash)	Bu turdagi tinglab tushunishda ingliz tilidagi biror suhbat yoki tinglanilayotgan audio/videomaterialda aytib o'tiladigan biror aniq ma'lumot (misol uchun, raqamlar, joy nomlari, odamlar ismlari va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlar) idrok etiladi.
<b>Listening in detail</b> (batafsil mulohaza va mushohada qilib tinglab tushunish)	Bu turdagi tinglab tushunishda ingliz tilidagi biror suhbat yoki tinglanilayotgan audio/videomaterialning asosiy mazmuni tashqari, arzimas bo'lib tuyilgan detallariga ham e'tibor beriladi. Ma'lum bir savolga javob olishda bu turdagi tinglab tushunish ko'nikmasini bilish juda muhim hisoblanadi.
<b>Inferential listening</b> (inferensial (deduktiv, mantiqiy baholash, munosabat bildirish, xulosalash maqsadida) tinglab tushunish)	Bu turdagi tinglab tushunishda ingliz tilidagi biror suhbat yoki tinglanilayotgan audio/videomaterial yuzasidan unga deduktiv, mantiqiy baho beriladi, munosabat bildiriladi, xulosa qilinadi.

torlaridan iborat. Retseptorlar 0,1 dan 10 nm diapazondagi tebranishlarni qabul qiladi. Eshitish analizatorlari markaziy bo'limida joylashgan neyronlar muayyan tovush tebranishlariga sezgir. Eshitish analizatorlarining nerv elementlari tovush tebranishlari bilan birga tovush kuchi, davomiyligi va boshqalar xususiyatlariga ham ta'sirchan. Markaziy nerv sistemasi va, ayniqsa, uning yuqori qismi neyronlari tovushning murakkab belgilari (mas, tovush amplituda modulatsiyasi chastotasi, yo'nalishi va harakati)ga sezgir bo'ladi [2].

Ingliz tilini o'rganayotgan inson tinglab tushunish ko'nikmasining bir qancha *maqsadlarini* bilmog'i lozim. Bular ma'lum bir mavzu yuzasidan *ma'lumot olish (xabardor bo'lish)*, biror kimni yoki nimani eshitganida unga *emotsional munosabat* (qandaydir hamdardlik, achinish, rahm) bildirish, yoki bo'lmasa, tinglangan materialdan (musiqaning tinglaganda) *zavq olish*, unga *baho* (munosabat) berish, va eng muhimi, eshitgan ma'lumotini (hattoki tovushni ham) *tanqidiy (yaxshi yoki yomon; salbiy yoki ijobiy) tahlil* qilish va uni *idrok* etish maqsadlaridan iboratdur.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida kundalik hayotimizda ham tinglab tushunish ko'nikmasi turlaridan foydalanamiz (1-rasm).

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilson J.J. How to teach listening. 2008.
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Eshitish\\_analizatorlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Eshitish_analizatorlari)